

**IRODASIZLIK.IRODASIZLIKNING HARXIL NAMOYON
BO'LISHI.DANGASALIK**

Bazarbaev Alisher Yusup Uli
Qoraqalpoq Davlat Universiteti Talabasi
alisherbazarbaev2002@gmail.com
+998 90 653 45 15

Annotatsiya: Ushbu tezisdagi iroda o'zi nima? Irodasizlik nimadan kelib chiqadi va uning oqibatlari, dangasalikning bugungi kunda dolzarb muammo bo'lganligi haqida yoritilgan.

Kalit so'zlar: Iroda, Irodasizlik, Abulya, Dangasalik.

Kirish: *Irodasizlik* – kishining o'zini o'zi idora qila bilmasligi, o'z xulqi va faoliyatini tartibga sola olmasligi va o'zini o'zi boshqarish, zarur paytda o'zini tutishga, jasorat, mardlik, matonat ko'rsatishga qurbi yetmasligi bilan bog'liq holatlarini ifoda etadigan tushuncha. Irodasiz inson ozgina muvaffaqiyatsizlik yoki to'siqdan qo'rqib maqsadidan voz kechadi, oldinga yurish o'rniga orqaga tisariladi. Vaziyatga qarab o'zgaraveradi. O'ziga, o'zining kuch-imkoniyatlariga ishonmaydi, vaziyat murakkablashishi bilan o'ziga ham, boshqalarga ham xiyonat qiladi. Lekin vaziyat ijobiy tomonga o'zgarib boshlashi bilan uyat va hamiyatni bir chekkaga yig'ishtirib qo'yib, yana maydonga chiqmoqchi, o'zini fidoyi qilib ko'rsatmoqchi bo'ladi. Shuning uchun ham bunday odamlar juda xavflidir. Chunki ularning do'st yoki dushmanligini tezda bilib bo'lmaydi. Ular har qanday qabihliklar – sotqinlik, firibgarlik, tuhmat va bo'htondan ham qaytmaydi. Xalqimiz bunday odamlarni "Og'irning ustidan, yengilning ostidan yuradi", deb ta'riflaydi. Darhaqiqat irodasiz odam hech qachon mas'uliyatni zimmasiga olmaydi, tashabbus ko'rsatmaydi, "Bersang yeyman, ursang o'laman", degan aqida asosida yashaydi. Irodasiz insonning xatti-harakati, xulqi uning o'zidan ko'ra boshqalarga ko'proq zarar keltiradi. Irodasizlik kishida tushkunlik kayfiyati

ustun bo'ladi. U dunyoga va hayotga umidsizlik bilan qaraydi, barchaning faqat salbiy, yomon tarafini ko'radi. O'zidagi kamchilik va muvaffaqiyatsizliklarning sababchisi o'zgalari deb biladi.

Asosiy qism: Irodaning kuchsizligi odatda *irodasizlik* deb ataladi. Qarorni bajarish jarayonidagi ixtiyoriy ish-harakatlardagi iroda kuchi o'zini tuta bilishda, jasurlik, sabot va matonat, chidam va toqatda namoyon bo'ladi.

Kishilarning hayoti va faoliyatida shunday hollar ko'p bo'ladiki, bunda odam zarur paytida o'zini tuta olmay qoladi, jasurlik, sabot-matonat, intizomlilik ko'rsata olmaydi. Xarakter xislati irodasiz kishilar mavjud, bunday kishilar irodasi kuchsiz yoki *irodasiz kishilar* deyiladi. Bunday kishilar irodasi kuchsiz yoki *chidamsiz kishilar* deyiladi. Bular xatto arzimas qiyinchilik va to'sqinliklarni ham bartaraf qila olmaydigan kishilardir. Bular salgina muvaffaqiyatsizlik yoki qiyinchilik kelib chiqqanda ham o'z oldiga qo'ygan maqsaddan voz kechib ish harakatini to'xtatadigan, o'z qarorini bekor qiladigan yuraksiz, qo'rqqoq kishilardir. Ular vaziyat talab qilganda zarur jasurlik sabot-matonat, chidam, toqat, qat'iyat ko'rsatmaydilar. Bular cho'chima, yalqov joni paxta kishilardir. Bunday kishilarning xatti-harakatlari odatda ularning o'zidan ko'ra tashqi sharoitga bog'liq bo'ladi.

Bunday xarakter xislatlarga ega bo'lgan kishilar pessimistik kayfiyatda bo'lib, dunyoga va hayotga umidsizlik bilan qaraydilar. Ular doimo barcha kishilarning salbiy, yomon tomonlarini ko'radilar, bu kishilarning fikricha, o'zlarining barcha kamchiliklari va muvaffaqiyatsizliklarining sababchisi boshqa kishilardir. Bu xildagi ba'zi kishilar passiv beparvo kayfiyatda bo'ladilar.¹

Abuliya (yunon. Abule - irodani inkor etmoq) - eng oddiy, osongina masalalar bo'yicha ham ma'lum qarorga kelish qobiliyati yo'qligida namoyon bo'ladigan o'ta irodasizlik.

Zamonaviy psixologiya fanida irodasizlik hodisasi keng o'rganilgan. Jumladan, uning bir tarmog'i bo'lgan patopsixologiyada irodaning har xil

¹ F.I Haydarova va N.I Xalilova, "Umumiy psixologiya", T. 2009-y -262 c.s
www.tadqiqotlar.uz

darajadagi susayish holatlari kuzatiladi. Masalan, abuliya – irodaga xos har qanday harakatning to‘xtashi va barcha xohish-istaklarning yo‘qolishi bilan bog‘liq holda kechadigan kasallik hisoblanadi. Bunda inson faqat stereotipga aylangan bir xildagi harakatlarni amalga oshiradi. Pirovard natijada, u eng oddiy fiziologik ehtiyojlarni amalga oshirishga qaratilgan ishlarni ham bajara olmay qoladi.

Dangasalik

XXI – globallashuv asrining eng katta va dolzarb muammosi – Dangasalik. Atrofdagi insonlarga “dangasalik nima?” degan savolni berganimda, ular “shunchaki, biror ishni qilishni xohlamaslik” yoki “ko‘p uxlash” kabilarni aytib o‘tishdi. Aslida-chi, birgina dangasalik so‘zining zamirida qanchadan-qancha ma'no yashiringanligini bilamizmi? Dangasalik so‘zi “mehnat qilishdan qochishga odatlanganlik”, “mehnat qilmaslik” degan ma'noni anglatadi. Demak, dangasalik insonlar o‘ylaganichalik tor tushuncha emas, balki loqaydlik, bee'tiborliklarning sababchisi bo‘lgani o‘laroq, mudhish voqealarning ishtirokchisidir. Afsuski, bugungi kunda bu “kasalik”ka odamlarning yelgil-yelpi qarashi natijasida dangasalikning davomi bo‘lmish yomon illatlar avj olmoqda.

Xulosa: Xulosa o'rnida aytishimiz mumkinki, iroda bu insonning hayotiy qiyinchiliklarni yengib o'tishi, maqsadga erishish qobiliyatidir. Xususan, u xarakter, maqsadlilik, qat'iyatlilik, matonatlilik, jasoratlilik kabi fazilatlarda namoyon bo'ladi. Ushbu xarakter xususiyatlari ijtimoiy foydali yoki jamiyatga zid maqsadlarga erishishga yordam berishi mumkin. Shu sababli ham o'quvchilarda irodaviy sifatlarni rivojlantirish ta'lim-tarbiya jarayonining muhim funksiyalaridan biri sifatida belgilanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.F.I. Haydarov va N.I.Xalilova, "Umumiy psixologiya", T. 2009-y 262-266 c.
- 2.E. G'oziyev, "Umumiy psixologiya", T. 2002-y -145 c.
- 3.<https://studfile.net/preview/4339306/>
- 4.https://bookap.info/lichnost/ilin_psihologiya_voli/g11.shtm